



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2024-yil 25-sentabr

441-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi
“2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha
chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 588-son qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining ma‘suliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi PF-80-son farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi “2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 588-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi “2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 588-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ilovaga muvofiq tasdiqlanishi;

davlat organlari va tashkilotlarida o‘z faoliyati sohasiga oid huquqiy axborotlarni aholiga yetkazish faoliyatini tashkil qilish hamda muvofiqlashtirishga **mas‘ul bo‘linmalar etib belgilanishi;**

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qonunchilik hujjatlari va islohotlar mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish darajasi va sifati ular faoliyatining samaradorligini **baholash mezonlaridan biri hisoblanishi;**

dasturda belgilangan chora-tadbirlar o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishi hamda natijasi bo'yicha ma'lumotlar **har chorak yakunida** Adliya vazirligiga taqdim etib borilishi uchun tegishli **davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari shaxsan javobgar hisoblanishi;**

Dasturda belgilangan chora-tadbirlar tegishli davlat organlari va tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi inobatga olinsin va ijroga yo'naltirilsin.

3. Ushbu dasturning ijrosi bo'yicha viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (U.Oripov), viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O.Movlanov), viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (F.Muhammadiyev), viloyat madaniyat boshqarmasi (I.To'rayev), viloyat sport boshqarmasi (V.Ro'ziyev), viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (U.Nusurov), Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat hududiy shu'basi (S.Aripov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (D.Allayev), viloyat Ma'naviyat va ma'rifat markazi (K.Karomova), viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Sultonov) hamda tegishli davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari shaxsan javobgar hisoblanadi.

4. Mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqarma va idoralar hamda ularning tuzilmalari binolarining kirish joylarida "**Konstitutsiya burchaklari**"ni tashkil qilsin.

mahalliy davlat hokimiyati organlarida ushbu qaror ijrosini muvofiqlashtirib borish viloyat hokimligi yuridik xizmatiga yuklatilsin.

5. Viloyat adliya boshqarmasi Dasturda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi holatini doimiy monitoring qilgan holda ularning ijrosi yuzasidan **har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 12 sanasiga qadar** Adliya vazirligi va viloyat hokimligiga axborot kiritib borsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Qodirov hamda viloyat hokimining o'rinbosarlari M.Azizov, A.Qobilov, A.Zakirov va viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i S.Nuriyev zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 25-sentabrdagi
441-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturi

TR	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
I. Shaxs, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish					
1	O'quvchi yoshlarga motivatsiya berishga qaratilgan turli aksiya va boshqa tadbirlar tashkil qilish. Bunda muvaffaqiyatga erishgan yoshlar bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil qilish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil oktabr	-	Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Sultonov), viloyat Adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
2	Yoshlar o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish maqsadida "Yoshlar va qonun" tanlovini tashkil qilish.	Idoraviy hujjat	2024-yil oktabr	Byudjetdan tashqari mablag'lar va qonun-chilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Sultonov), viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
	Bolalar uchun mo'ljallangan huquqiy mavzularda, shu		2024-yil oktabr		Viloyat adliya boshqarmasi

3	jumladan, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, darslarga muntazam qatnashish, yo'l harakati qoidalariga rioya qilishni targ'ib qiladigan video-roliklar tayyorlash va tarqatish.	Videoroliklar	2025-yil aprel	-	(S.Nuriyev), viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (U.Oripov)
4	O'quvchilar o'rtasida " Huquq bilimdoni " fan olimpiadasi, huquq fani o'qituvchilari o'rtasida " Eng yaxshi huquq o'qituvchisi " ko'rik-tanlovini o'tkazish	Tanlovlar	2024-yil oktabr 2025-yil aprel	Budjetdan tashqari mablag'lar va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (U.Oripov)
5	"Tengdosh-tengdoshga" tamoyili asosida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy isloholar, qonunchilikdagi yangiliklar mazmun-mohiyatini yoshlarga tushuntirishga qaratilgan " Islohotlarga daxldorman " keng qamrovli targ'ibot aksiyasini o'tkazish	Manzilli targ'ibot tadbirlari	2024-yil oktabr 2025-yil aprel	-	Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Sultonov), viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)

6	Ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlar uchun davlat ramzlarini e'zozlash, yoshga mos huquq va burchlarini tushuntirish mavzularida ochiq darslar, o'quv mashg'ulotlarini tizimli va uzluksiz tashkil qilish	Ochiq darslar, shquv mashg'ulotlari	2024-2025 o'quv yili davomida	-	Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (U.Oripov), viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O.Movlanov), viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
7	“Konstitutsiya-huquqlarim poydevori” mavzusida barcha umumta'lim maktablarini qamrab olishga qaratilgan ijodiy insholar tanlovini tashkil qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2024-2025 o'quv yili davomida	Byudjetdan tashqari mablag'lar va qonun-chilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Sultonov), viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
8	Ta'lim muassasalarida yoshlarni o'z huquqiy savodxonligini yuksak darajada shakllantirish va oshirishdek ezgu maqsadlar atrofida birlashtiruvchi “Huquqiy bilimlar oyligi”ni o'tkazish	Kompleks chora-tadbirlar	2024-yil oktabr 2025-yil oktabr	-	Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (U.Oripov), Viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O.Movlanov)
			2024-yil		Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi

9	Ta'lim muassasalarida “Konstitutsiyada yoshlar huquqlari” shiori ostida huquqiy oylik o'tkazish	Tashkiliy chora-tadbirlar	noyabr-dekabr 2025-yil noyabr-dekabr	-	boshqarmasi (U.Oripov), Viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O.Movlanov), viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
10	Adliya vazirligi yuridik texnikumlarning o'quvchi-yoshlari o'rtasida “Idrok” intellektual o'yinlarini o'tkazish.	Tanlovlar	2024-yil noyabr-dekabr 2025-yil noyabr-dekabr	Budjetdan tashqari mablag'lar va qonun-chilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat Adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
11	O'quvchilar va talabalar o'rtasida korrupsiyaga qarshi murosasizlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovini o'tkazish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil noyabr-dekabr 2025-yil noyabr-dekabr	Budjetdan tashqari mablag'lar va qonun-chilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (U.Oripov), Viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O.Movlanov)
	Yoshlarning huquqiy			Budjetdan	Viloyat adliya

12	bilimlarini oshirishga qaratilgan onlayn huquqiy savodxonlik maktabini tashkil etish va u orqali bepul huquqiy o'quv kurslarini joriy etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil dekabr	tashqari mablag'lar va qonun-chilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	boshqarmasi (S.Nuriyev), viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Sultonov)
13	Oilaviy ajrimlar, oilalardagi notinchlik , zuravonlikni huquqiy va bolalar tarbiyasidagi salbiy oqibatlarini yoritib beruvchi ijtimoiy videoroliklar tayyorlash va viloyat teleradiokompaniyasi orqali tarqatish.	Ijtimoiy videorolik	2024-2025-yillar davomida (har chorakda kamida bir marotaba)	-	Viloyat teleradiokompaniyasi, viloyat Adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
14	Yoshlarda huquqshunoslik kasbiga bo'lgan qiziqishini rahbatlantirish, ularga huquqiy ta'lim bilan joyiga chiqqan holda tanishish imkoniyatini yaratish maqsadida yuridik ta'lim muassasalarida yoshlar uchun “Ochiq eshiklar kuni” tadbirlarini o'tkazish.	“Ochiq eshiklar kuni” tadbirlari	2024-2025-yillar davomida (har chorakda kamida bir marotaba)	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O.Movlanov)
15	Yoshlarning o'z huquqlaridan xabardorlik darajasini so'rovnomalarda o'tkazish orqali aniqlash va uning natijalariga ko'ra yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan	Manzilli targ'ibot tadbirlari	2024-2025-yillar davomida (har chorakda kamida bir	-	Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Sultonov), viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)

	manzilli tadbirlar tashkil qilish.		<i>marotaba</i>		
16	<p>“Mamlakat kelajigiqonunga itoatkor va huquqbuzarlikka toqatsiz yoshlar bilan” g‘oyasi asosida yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish, ularda qonunlarga hurmat, mamlakat taqdiriga daxldorlik hamda vatanparvarlik hissini kuchaytirishga qaratilgan kompleks huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish.</p>	Manzilli targ‘ibot tadbirlari	2024-2025-yillar davomida <i>(har chorakda kamida bir marotaba)</i>	-	<p>Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Sultonov), viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), Viloyat maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi (U.Oripov), Viloyat oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O.Movlanov)</p>
17	<p>Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yoshlarning tashrifini tashkil qilish orqali “Tengdoshimga huquqiy yordam” tadbirlarini o‘tkazib borish.</p>	Manzilli targ‘ibot tadbirlari	2024-2025-yillar davomida <i>(har chorakda kamida bir marotaba)</i>	-	<p>Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Sultonov), viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), manfaatdor boshqarma va idoralar</p>

18	<p>Yoshlar o'rtasida huquqshunoslik kasbining obro'si va nufuzini oshirish, yoshlarda ushbu kasbga nisbatan hurmat va faxr tuyg'ularini shakllantirish maqsadida maktablarda, o'rta maxsus va professional hamda oliy ta'lim muassasalarida uchrashuvlar tashkil qilish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2024-2025-yillar davomida <i>(har chorakda kamida bir marotaba)</i>	-	<p>Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Sultonov), viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), manfaatdor boshqarma va idoralar</p>
2.Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda "mahalla yettiligi" bilan hamkorlikni kuchaytirish					
19	<p>Mahallalarda haftaning har chorshanba kuni quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi "Huquqiy targ'ibot kuni" loyihasini o'tkazish:</p> <p>aholi uchun eng dolzarb masalalarni aniqlash orqali ular yuzasidan huquqiy tushuntirish va maslahatlar berish;</p> <p>ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun imtiyozlar va moddiy yordam berish, nafaqa tayinlash, ishsizlikdan himoyalanih,</p>	Manzilli targ'ibot tadbirlari	2024-2025-yillarda	Byudjetdan tashqari mablag'lar va qonun-chilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	<p>Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev) O'zbekiston Mahallalari uyushmasi viloyat hududiy boshqarmasi (D.Allayev) Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (F.Muxammadiyev),</p>

	<p>vaqtinchalik ish bilan ta'minlash, ijtimoiy yordam olish tartibi bo'yicha tizimli huquqiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish; kundalik hayotda eng ko'p zarur bo'ladigan davlat xizmatlaridan foydalanish tartibi hamda ulardan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va boshqa elektron resurslar orqali foydalanishning afzalliklari to'g'risida huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish.</p>				<p>viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov) manfaatdor boshqarma va idoralar</p>
20	<p>“Online-mahalla” platformasida “mahalla yettiligi” tomonidan kiritilgan aholining turli qatlamlari orasida ko'p uchrayotgan muammolardan kelib chiqib huquqning muayyan sohalari bo'yicha manzilli va predmetli huquqiy aksiyalar o'tkazish.</p>	<p>Manzilli targ'ibot tadbirlari</p>	<p>2024-2025-yillar davomida</p>	-	<p>Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), O'zbekiston Mahallalar uyushmasi viloyat hududiy boshqarmasi (D.Allayev), viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (F.Muxammadiyev), manfaatdor</p>

					boshqarma va idoralar
21	Mahallalarda aholi orasidagi turli muammoli masalalar, xususan, migratsiya, moddiy yordam, yer olish, uy-joy olish, kommunal masalalar, imtiyozlar, aliment, ishga joylashish, ta'lim olish va boshqalar bo'yicha huquqiy axborotni buklet, flayer, liflet va plakatlar shaklida aholiga yetkazish.	Tarqatma targ'ibot materiallari	2024-2025-yillar davomida	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), manfaatdor boshqarma va idoralar
22	Aholining huquqiy muammolarini mahallalarning o'zida hal etish maqsadida "Mahalla yettiligi" a'zolarining faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, ular uchun o'quv-seminarlar tashkil qilish.	O'quv seminarlar	2025-yil yanvar-mart	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), O'zbekiston Mahallalar uyushmasi viloyat hududiy boshqarmasi (D.Allayev)
3. Davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish					
23	Jamiyat va davlat hayoti uchun muhim qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini davlat xizmatchilariga doimiy ravishda yetkazib berish maqsadida "Qonunchilikdagi	Huquqiy videoroliklar	2024-yil oktabr	-	Boshqarma va idoralar

	yangiliklar” rukni ostida videoroliklar tayyorlash.				
24	Davlat xizmatchilari o’rtasida “Huquqiy zakovat” intellektual uyunini o’tkazish.	Intellektual uyun	2024-yil noyabr 2025-yil sentyabr	Budjetdan tashqari mablag’lar va qonun-chilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Sultonov), viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralar
26	Normativ-huquqiy hujjatlar matnlari va ularni tushuntirishga qaratilgan materiallar Yagona huquqiy axborot almashish tizimi orqali yetkazilishini joriy etish.	Kompleks chora-tadbirlar	2024-yil noyabr	Budjetdan tashqari mablag’lar va qonun-chilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat Adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralar
27	Mahalliy davlat hokimiyati organlari, vazirlik va idoralarning hududiy tuzilmalari binolarining kirish joylarida “Konstitutsiya burchak” larini tashkil etish	Tashkiliy chora-tadbirlar	2024-yil noyabr	Byudjetdan tashqari mablag’lar va qonun-chilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat, tuman (shahar) hokimliklari boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
28	Davlat xizmatchilarining yangi tahrirdagi Konstitutsiya bo’yicha bilim va ko’nikmalarini	O’quv kurslari	2024-2025-yillar	-	Viloyat, tuman (shahar) hokimliklari, viloyat adliya boshqarmasi

	kuchaytirish maqsadida onlayn o'quv kurslarini tashkil qilish.		davomida		(S.Nuriyev) boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
29	Davlat organlari va tashkilotlarida davlat xizmatchilarining huquqlari hamda majburiyatlari, korrupsiyaga qarshi kurashish va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bilimlarni kuchaytirishga qaratilgan "Huquqiy bilimlar oyligi" "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" "Konstitutsiyaviy huquq oyligi"ni o'tkazish	Idoraviy hujjat asosida huquqiy oyliklarni o'tkazish	2024-2025-yillar davomida <i>(iyul, noyabr, dekabr)</i>	-	Viloyat, tuman (shahar) hokimliklari, viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev) boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
30	Mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlariga jamiyat va davlat hayoti uchun muhim qonunchilik hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan "Hokimlik soatlari" tadbirlarini tashkil etish	Kompleks chora-tadbirlar	2024-2025-yillar davomida <i>(har oyda kamida ikki marta)</i>	-	Viloyat, tuman (shahar) hokimliklari, viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev) boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
4.Aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini yuksaltirish					
31	Chekka va olis hududlarda yashovchi xotin-qizlar uchun	Kompleks chora-tadbirlar	2024-yil oktabr	-	Viloyat adliya boshqarmasi

	“Ayllarga huquqiy madad” qo‘llanmasini bepul tarqatish.				(S.Nuriyev)
32	Aholi muammolarini joyiga chiqqan holda o‘rganish, har bir fuqaroga individual yondashuvni joriy etishga qaratilgan “Bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga” shiori ostida aholiga huquqiy yordam berishga qaratilgan huquqiy aksiya o‘tkazish.	Huquqiy aksiya	2024-yil oktabr 2025-yil may	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
33	Haydovchilar va yo‘l harakatining boshqa ishtirokchilari huquq hamda majburiyatlarini aks ettiruvchi, ularni qoidalarga rioya qilishga chorlovchi mediamateriallar tayyorlash va ommalashtirish.	Mediamateriallar	2024-yil oktabr 2025-yil mart	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov)
34	Nogironligi bo‘lgan hamda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ijtimoiy loyihalar, xayriya aksiyalarini o‘tkazish (“Biz birgamiz”, “Ranglar dunyosi”)	Tashkiliy choratadbirlar	2024-yil oktabr 2025-yil oktabr	Budjetdan tashqari mablag‘lar va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
35	Mahallalar bilan hamkorlikda aholining Konstitutsiya mazmun-mohiyatidan xabardorlik	Huquqiy aksiyalar	2024-yil noyabr 2025-yil	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)

	darajasini yanada oshirish maqsadida quyidagi huquqiy aksiyalarni o'tkazish: “Konstitutsiya-farovon hayot tayanchi”; “Yangi O'zbekiston Konstitutsiya-inson qadri uchun”; “Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi - mening Konstitutsiyam”		noyabr		boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
36	Aholining yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga oid bilimlarini kuchaytirish va sinovdan o'tkazish maqsadida qatnashish ixtiyoriy bo'lgan umummilliy Konstitutsiya imtihonini o'tkazish.	Tanlov	2024-yil dekabr 2025-yil dekabr	Byudjetdan tashqari mablag'lar va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
37	Davlat va jamoat arboblari, sa'natkorlar, mashhur sportchilar, bloger va faollarning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga oid munosabat-larini joylashtirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil Dekabr 2025-yil dekabr	-	Viloyat madaniyat boshqarmasi (I.To'rayev), viloyat sport boshqarmasi (V.Ruziyev)
38	Aholiga kundalik hayotida zarur bo'lgan huquq va majburiyatlarini oddiy, sodda va xalqchil tilda tushuntirish	Manzilli targ'ibot	2024-2025-yillar davomida (har oyda)	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)

	bo'yicha huquqiy targ'ibot materiallari paketini (annotatsiya, videorolik, infografika va boshqa ko'rgazmali materiallar) tayyorlash hamda ularni televideniye va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish.	tadbirlari	<i>kamida ikkitadan material)</i>		boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
39	Aholining turli qatlamlari uchun zarur bo'lgan huquqiy ma'lumotlarni sodda shaklda tushuntirish bo'yicha "10 savolga 10 javob, muhim 5 qoida" ruknlari doirasida turkum maqolalar tayyorlash va tarqatish	Huquqiy maqolalar	2024-2025-yillar davomida <i>(har oyda kamida ikkitadan material)</i>	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
40	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami, shu jumladan, yoshlar, xotin-qizlar uchun qonunchilikda berilgan imtiyozlar, moddiy yordam, nafaqa tayinlash, ishsizlikdan himoyalash, vaqtincha bir martalik ish bilan band bo'lish, ijtimoiy yordam olish tartibi bo'yicha kompleks targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish.	Kompleks targ'ibot tadbirlari	2024-2025-yillar davomida <i>(har oyda kamida ikkitadan material)</i>	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
	Aholi o'rtasida huquqiy nigilizm holatlarini bartaraf qilish, ularda huquqbuzarliklarning	Kompleks	2024-2025-yillar		Viloyat adliya boshqarmasi

41	jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun salbiy illat ekanligiga oid dunyoqarashni yanada mustahkamlashni tag'ib qilishga qaratilgan kompleks targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda tegishli ma'lumotlarni infografika va komnke shaklda aholiga yetkazish	chora-tadbirlar	davomida (<i>har oyda kamida ikkitadan material</i>)	-	(S.Nuriyev), boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
42	“1008” ishonch telefoniga kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish va uning natijasiga ko'ra manzilli va predmetli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish uchun targ'ibot materiallarini tayyorlash va mas'ul davlat organlariga yetkazgan holda, aholiga qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini yetkazish bo'yicha choralar ko'rish.	Kompleks chora-tadbirlar	2024-2025-yillar davomida (<i>har chorakda</i>)	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
43	Xorijiy davlatlarda mehnat qilish istagida yurgan fuqarolar, ayniqsa, yoshlar uchun qonuniy mehnat migratsiyasi, xususiy bandlik agentliklari xizmatidan foydalanish tartibi, noqonuniy migratsiya oqibatlari, odam	Manzilli targ'ibot tadbirlari	2024-2025-yillar davomida (<i>har oyda kamida ikkitadan material</i>)	-	Viloyat kambag'alikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (F.Muxammadiyev), viloyat adliya boshqarmasi

	savdosi girdobiga tushib qolmaslik to'g'risida keng tushuntirish ishlarini amalga oshirish.				(S.Nuriyev)
44	Fuqarolar o'rtasidagi o'zaro muammolarni faqat huquqiy vositalar yordamida hal etish , o'zboshimchabilk bilan o'zgalarning huquq va erkinliklariga daxl qilmaslik hamda bunday holatlarning oldini olish bo'yicha kompleks targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish.	Kompleks targ'ibot tadbirlari	2024-2025-yillar davomida (har oyda kamida bir marotaba)	-	Adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov)
45	Yil yakunlari bo'yicha aholidan eng ko'p kelib tushgan murojaatlar asosida "TOP-100" huquqiy tavsiya va maslahatlarni turli ko'rinishlarda keng jamoatchilikka taqdim etish	Kompleks targ'ibot tadbirlari	2024-yil dekabr 2025-yil dekabr	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
46	Davlat va jamiyat hayoti uchun muhim qonunchilik hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan huquqiy targ'ibot materiallari paketlarini davlat organlari va tashkilotlariga yetkazgan holda aholi o'rtasida tadbirlar tashkil qilish	Manzilli targ'ibot tadbirlari	2024-2025-yillar davomida (har oyda kamida ikki marotaba)	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
	Aholini turli huquqbuzarliklar,		2024-2025-		Viloyat adliya

47	xususan firibgarlik, tovlamachlik, o'g'irlikning jabrlanuvchisi bo'lib qolishining oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish	Kompleks chora-tadbirlar	yillar davomida (har oyda kamida bir marotaba)	-	boshqarmasi (S.Nuriyev), viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov)
48	Mahallalarda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha har bir mahallaning toifasidan kelib chiqqan holda, har choraklik mahallabay dasturlar asosida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Kompleks chora-tadbirlar	2024-2025-yillar davomida	-	Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), Viloyat dliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
49	Nizoli oilalar tomonidan oilaviy munosabat-lar doirasidagi huquqbuzarlik-larning oldini olish borasidagi ishlarningn samaradorligini oshirish maqsadida “Turmush” maxsus profilaktik tadbirlarni o'tkazish	Manzilli targ'ib ot tadbirlari	2024-2025-yillar davomida	-	Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov)
50	Aholida, ayniqsa yoshlarda turli yot g'oyalarga, shu jumladan ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik va boshqa illatlarga qarshi kuchli mafkuraviy immunitetni yanada kuchaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni	Kompleks chora-tadbirlar	2024-2025-yillar davomida (har oyda kamida bir marotaba)		Viloyat ma'naviyat va ma'rifat markazi (K.Karomova), Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Sultanov)

	amalga oshirish				
51	Aholi o'rtasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lash jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligini tushuntirish bo'yicha manzilli targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish, bunda ko'rgazmali materiallardan keng foydalanish, mavzu doirasida mediamateriallar tayyorlash va tarqatish	Manzilli targ'ibot tadbirlari	2024-2025-yillar davomida <i>(har oyda kamida ikki marotaba)</i>	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev) boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
52	Aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, bu boradagi davlat dasturlari, yoshlar tadbirkorligi, tadbirkorlik faoliyati uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlar bo'yicha manzilli targ'ibot tadbirlarini o'tkazish, bunda ko'rgazmali materiallardan keng foydalanish, mavzu doirasida mediamateriallar tayyorlash va tarqatish.	Manzilli targ'ibot tadbirlari	2024-2025-yillar davomida <i>(har oyda kamida bir marotaba)</i>	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
53	Jazoni ijro etish muassasalarida "Huquq va men", "Jinoyat olamidani qaytish" nomli ma'rifiy-huquqiy mashg'ulotlarni	Ma'rifiy-huquqiy mashg'ulotlar	2024-2025-yillar davomida <i>(har chorakda)</i>	-	Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), viloyat adliya boshqarmasi

	o'tkazish		<i>kamida bir marotaba</i>)		(S.Nuriyev), viloyat Ma'naviyat-ma'rifat markazi (K.Karomova)
II.Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targ'ibotning innovatsion usullarini joriy qilish					
54	Ijtimoiy tarmoqlar orqali, shu jumladan, "huquqiy axborot" telegram kanalida aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan, kanalda berib borilayotgan ma'lumotlar asosida huquqiy test sinovlarini o'z ichiga olgan onlayn " Sovrinli viktorina " o'tkazish	Onlayn viktorina	2024-2025-yillar davomida	Byudjetdan tashgqari mablag'lar va qonunchilik hujjatlarida ta' Qiqlanmagan boshqa manbalar	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
55	Aholining kundalik hayotimdagi muammolariga jonli javob berish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda, telegram orqali aholini qmiziqtirgan masalalar bo'yicha soha mutaxassislari ishtirokida ovozli suhbatlar (audiopodkast)	Ovozli suhbatlar (audiopodkast)	2024-2025-yillar davomida (<i>har oyda kamida bir marotaba</i>)	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
56	" test.adliua.uz " platformasi orqali aholining huquqiy bilimlarini doimiy ravishda sinovdan o'tkazib borish.	Test sinovlari	2024-2025-yillar davomida (<i>har oyda kamida bir</i>	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralarning hududiy

			<i>marotaba</i>		tuzilmalari
57	“yurkitob.uz” huquqiy platformasini aholining keng qatlami, shu jumladan, yoshlar, xotin-qizlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi uchun mo‘ljallangan huquqiy adabiyotlar bilan boyitish.	Kompleks chora-tadbirlar	2025-yil yanvar	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
111. Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositlarining rolini kuchaytirish					
58	Huquqiy ma’lumotlarni yoritishda amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish maqsadida ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalist va blogerlar uchun o‘quv seminarlar tashkil qilish.	O‘quv seminarlar	2024-yil oktabr	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (U.Nusurov)
59	Aholi orasidagi turli muammoli masalalar, xususan, migratsiya, moddiy yordam, yer olish, uy-joy olish, kommunal masalalar, imtiyozlar, aliment, ishga joylashish, ta’lim olish va boshqalar bo‘yicha ko‘rsatuvlar tayyorlash va efirga uzatish.	Ko‘rsatuvlar	2024-2025-yillar davomida (har oyda kamida ikki marotaba)	-	Adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
60	Jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning shaxsiy	Teledasturlar	2024-2025-yillar		Viloyat ichki ishlar

	rivojlanish hamda jamiyat taraqqiyoti uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqarishga oid teledasturlar tayyorlash va efirga uzatish.		davomida (<i>har oyda kamida ikki marotaba</i>)	-	boshqarmasi (A.Ismoilov)
61	Davlat va jamiyat hayoti uchun muhim qonunchilik hujjatlari hamda huquqiy islohotlvar bo'yicha matbuot anjumanlari va brifinglar tashkil qilish	Brifing va matbuot anjumanlari	2024-2025-yillar davomida (<i>Har oyda kamida ikki marotaba</i>)	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev) Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (U.Nusurov)
62	Ijtimoiy tarmoqlarda va aholi o'rtasida keng muhokamalarga sabab bo'layotgan ijtimoiy hodisalarning huquqiy asoslarini yoritib berishga qaratilgan videopodkastlar tashkil qilish va ularni ommalashtirish.	Videopodkastlar	2024-2025 illar davomida (<i>Har oyda kamida ikki marotaba</i>)	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralarning hududiy tuzilmalari
63	Ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalist va blogerlar uchun sohaga oid qonunchilik hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan huquqiy qo'llanma tayyorlash.	Huquqiy qo'llanma	2025-yil iyun	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (U.Nusurov)

IV. Huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish

64	Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish holati hamda bu sohadagi davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini o'rganish uchun so'rovnoma lar o'tkazish	So'rovnoma	2024-yil dekabr 2025-yil iyun		Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
65	Ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarda, telegramdagi "Huquqiy axborot" kanalida huquqiy axborotni yetkazish bo'yicha so'rovnoma o'tkazish va so'rovnoma natijasiga ko'ra axborot tarqatishni yo'lga qo'yish.	So'rovnoma	2024-2025-yillar davomida (<i>Har oyda kamida bir marotaba</i>)	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
66	"Aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish: milliy va xalqaro tajriba" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etish.	Konferensiya	2025-yil fevral	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
67	Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning zamonaviy yondrshuvlari, yangicha uslublar va boshqa maqsadlarni qamrab olgan davra suhbatlari tashkil qilish	Davra suhbatlari	2025-yil aprel	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), boshqarma va idoralar
	Jamiyatda huquqiy	Tahliliy ma'lumotnoma	2024-2025-yillar		Viloyat adliya

68	madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni onlayn monitoring qilgan holda viloyat hokimligiga axborot kiritish.		davomida (<i>har yarim yillik yakunlari bo'yicha</i>)	-	boshqarmasi (S.Nuriyev)
69	Huquqshunoslikning dolzarb masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovayion tadqiqotlar olib borish.	Tadqiqot ishlanmalari	2025-yil iyun	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)
70	Yuridik ta'lim va huquqiy xizmat ko'rsatish sohalarini huquqiy texnologiyalarni qo'llash orqali rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish.	Tadqiqot va tahlillar	2025-yil sentyabr	-	Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev)